

“YUZ OH, ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR...” DOSTONINING MAVZU QAMROVI

Turapova Marhabo Abdumajidovna

Toshkent shahar Uchtepa tumani 116-sonli IDUMning

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, tadqiqotchi

marhaboturapova@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” asarida kerilgan “Boburnoma”ning ayrim nasriy bayoni nazmga aylantirilishi holatlari keltirilgan. Laff va nashr san‘ati asosida.*

Tayanch tushunchalar: *qismat, shoir, ko‘ngil, bag‘riqora, hijron, salohiyat*

Annotation: *This article presents the cases of turning some of the prose narratives of “Baburnoma” found in Sirojiddin Sayyid’s “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Babur...” into verse. Based on Laff and publishing art.*

Key words: *fate, poet, heart, patience, emigration, potential*

Insonning hayotdagi o‘z o‘rni, o‘z umrini yaxshilikka, go‘zalliklar yaratishga safarbar etish masalasi har bir avlod ijodkorlarini o‘ylantirib kelmoqda. Xususan, tezkor, shiddatkor vaqt sur‘atidan boqiy go‘zalliklar yarata olish, hayotdan o‘z o‘rnini topish demakdir. Umr mazmunini salmoqli so‘qmoqlar ochishga qaratish demakdir. Illo, teran ma‘noli fikrgina vaqt tizginini jilovlay biladi.

Sirojiddin Sayyid juda ko‘p zamonlardan shu kabi fazilatlar sohibi ekani, bilganlarini amaliyotda mahorat bilan qo‘llay olishi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi shoirlardan ko‘pchiligi bunday salohiyatga ega emas. Shoir she‘rlariga mahliyolikni bir so‘z bilan aytganda ta‘riflash qiyin. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida hayotga sezgirlik, hayotiy hodisalarga qiziquvchanlik, odamlar taqdiriga mas‘ullik hissi hukmron. Shoir jo‘shqin hayotning dolzarb muammolari, qaynoq nafasi og‘ushida yashab kelmoqda. Shoir ijodiy individualligining o‘ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat ko‘rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” (Firoq va sog‘inch) dostonida mavzu Boburning hayotida davomida bo‘lib o‘tgan voqe‘alar bilan bog‘langan holda tasvirlangani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dostonning o‘rganishda shunga amin bo‘ldikki, nasriy bayonni nazmga aylantirilish holatlari ko‘p uchraydi.

Haqiqatdan ham Bobur yashab ijod etgan zamon Movarounnahr va Xuroson tarixida g‘oyat ziddiyatli bir davr edi. Bir tomondan, ulug‘ Amir Temur tomonidan asoslangan, nisbatan markazlashgan davlat, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga ko‘rsatgan qator ijobiy oqibatlari bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, ana shu qudratli imperiyaning inqirozga yuz tutishi tufayli turli tomondan ham feodallarning o‘zaro toj-taxt uchun kurashlari el-yurt iqtisodiy – siyosiy va madaniy hayotiga, shubhasiz, salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

“Beklar va yigitlar!

Har kimki hayot majlissha kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig‘a kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila

o‘lgan yaxshiroq. Tengri taolo bu nav’ saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur...”

(To‘qqiz yuz o‘ttiz uchinchi (1526) yil voqialari)

* * *

“Yana uluq ish ustiga borasen, ish ko‘rgan, ra‘y va tadbirlig beklar bila kengashib, alarning so‘zi bila amal qilg‘aysen.

Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnishinliqni va el bila kam ixtilotliqni bartaraf qilg‘il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig‘a qo‘ymay, qoshingg‘a chorlab, har maslahat bo‘lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so‘z- unga qaror bergaysen”.

(To‘qqiz yuz o‘ttiz beshinchi (1528) yil voqialari)

* * *

“Musavvidi avroq aytadurkim, to‘qqiz yuz o‘ttiz yettida jumodil-avvaz oyining oltisida chahorbog‘idakim, o‘shul podshoh o‘z qo‘li bila obod qilib erdi, holi mutag‘ayyir bo‘lub, bu olami bevafo ni padrud qildi.

... Va maholdurkim, ul podshohi qobilning yaxshilig‘larini aytgan bilan va bitigan bilan tugangay. Lekin mujmal bukim, sekkiz sifati asil aning zotig‘a muttasil erdi: birisi bukim najhati baland erdi; ikkimchisi, himmati arjumand erdi; uchumchisi, viloyat olmog‘; to‘rtumchisi, viloyat saxlamog‘; beshumchisi, ma‘murlug‘; oltimchisi, rafohiyat niyati Tengri taolo bandalarig‘a; yettimchisi, cherikni ko‘nglini qo‘lg‘a olmoq; sekki- zinchisi, adolat qilmoq.

Va fajsht bobida kamlig‘i yo‘q erdikim, nazm va nasr va turkiy va forsiyini bebadal aytur edi... Til bilur dono xalq orasida aningdek latoyif yo‘qtur... “Vallohu bi-kulli shayin alim”.

(To‘qqiz yuz o‘ttiz oltinchi (1529) yil voqialari)

Yaratgan hukmidan oliyjoq bo‘ldim —

O‘n ikki yoshimdan podshoh bo‘ldim.

Temurxon avlodi — otam Umarshayx,

Qismat jom ichurdi g‘oyat achchiq, talx.

Buyuk bir qo‘l surib, yeldirdi meni,

Shatranj donasiday keltirdi meni.

Aytmangiz yo‘ldagi bir sipoh bo‘ldim,

O‘n ikki yoshimdan podshoh bo‘ldim.

Sirojiddin Sayyidning bu e‘tiroflari tahsinga loyiq. “Agar mening rizomni tilarsen...” (“musamman”- arabcha, sakkizlik, sakkiz misralik band usulda yozilgan she‘r) she‘rida Boburni ta‘riflashda so‘zning duru-gavharlaridan g‘oyat ustalik bilan foydalanganini guvohi bo‘ldik. Adib va olimlarimiz e‘tirof etganidek, “Boburnoma”ning go‘zal sahifalari ochilganining guvohi bo‘layapmizki, bunga istiqloq davri safarnomalari ham (mualliflar Xayriddin Sulton, Qamchinbek Kenja) yaqqol misol bo‘la oladi. Mana shu sohaga munosib ulush bo‘lib qo‘shilgan yana bir asar - Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” dostoni haqida fikr yuritimiz. Asarda “... mardlik va matonat, g‘urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini qo‘limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim”, - deb yozadi muallif doston muqaddimasida. U “Boburnoma” sarhadlarini kezib, “har so‘zning rosti bitilgan va har ishning bayoni tahrir etilgan” holatlarni shoirona qalb ko‘ngil ko‘zlari bilan qayta badiiy idrok etadi. “Har vaqtiki, ko‘rgasen mening so‘zumni, So‘zumni o‘qub, sog‘ingasen o‘zumni”, deya bashorat qilgan Mirzo

Boburning jon o‘rtar she‘riyatining eng nozik nuqtalaridan Sirojiddin Sayyid nuqtapardozlik kashf etdi. An‘anaviy dostonlardan farqli o‘laroq, “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” yaxlit syujetga, ma‘lum bir izchillikka ega emas. Ammo dostonning bir butun voqeaband asar kabi taassurot uyg‘otadigan, ichdan payvandlab-yaxlitlab turadigan bir jihati bor. Bu - Sirojiddin Sayyidning e‘tiborini tortgan yuz lavha, yuz holatning markazidagi Mirzo Bobur siymosi. Binobarin, yuz holat, yuz lahza ham Mirzo Boburning e‘tirofi yoki e‘tirozi, muhabbati yoki nafrati, hayrati yoki havasidir. U tuygan ruhiy og‘riqlar va chekkan alam-iztiroblar ifodasi o‘zgacha ruhda yoritib berilgan.

“Eng yaxshi san‘at asarlarini vaqti-vaqti bilan takror, sinchiklab ko‘rib turmoq zarur, ularda ko‘z ilg‘amas teranlik yashiringan bo‘ladi”, - degan edi buyuk Gyote. “Boburnoma”dagi ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan, ammo yurak, qalb bilan his etiladigan teranlikni kashf etgan Sirojiddin Sayyid ma‘lumot, kuzatuv darajasidagi matnlarni va ular zamiridagi hayotiy ma‘no va tuyg‘ularni qayta badiiy idrok etadi. Ularning har biridan Mirzo Bobur ruhiyatiga, uning insoniy mohiyatiga yo‘l qidiradi. Chunonchi, “Boburnoma”da Mirzo Boburning Hindiston va Qarshida uchraydigan bag‘riqora deb nomlanuvchi qushni solishtirib yozgan kuzatuv Sirojiddin Sayyid e‘tiborini tortgan:

“Yana Hinduston bag‘riqorasidir, ul bag‘riqoradin kichikroq va inichkaraktur. Bag‘rining qorasi ham kamdur. Uni ham andin inichkaraktur. Bag‘rining qorasi ham kamdur. Uni (tovushi) ham andin inichkaraktur...”

(To‘qqiz yuz o‘ttiz ikkinchi (1525) yil voqialari)

Jahonda hech kishi men singari ovvora ermasdir,
Biror ko‘ngul mening ko‘nglim kabi sadpora ermasdir.
Ayo, ey bag‘riqora qush, agar bag‘ring qarodir, lek,
Mening bag‘rimdagi dog‘lar misoli qora ermasdir.

Bobur uzoq yurtda yashab shoh bo‘lib, to‘kin hayot kechirgan bo‘lsa ham armon bilan yashab o‘tdi. Bag‘riqora qushning bag‘ri qoraligidan, Boburning qalbidagi g‘am-anduhlardan hosil bo‘lgan qora dog‘lar qora ekanligini o‘ksiklik bilan yozadi.

Ma‘lumki, “ma‘no so‘z so‘zga urishtirilganda voqe bo‘ladi. Zero, so‘zning so‘zga urilishi - bamisoli bong, uning jarangi tasavvurimizda qandaydir tushunchalar, narsalar, manzaralar, qiyoslarni - bir so‘z bilan aytganda, assotsiatsiyalarni; assotsiatsiyalar zanjirini uyg‘otadi” Sirojiddin Sayyidning “Bag‘riqora qush” deb nomlanuvchi bag‘ishlovida ovvora, sadpora, bag‘riqora, qora sifatleri o‘zaro qofiyalanib, she‘rdagi poetik ma‘no va ohangdorlikni kuchaytirib, ayni paytda, har biri ko‘ngilga nisbat berib qo‘llanganligi uchun obrazlar assotsiatsiyasini yuzaga chiqarayapti. Metaforik idrok etish orqali o‘quvchi Mirzo Boburning bevatanlik, yurt sog‘inchi tufayli chekkan iztiroblari dostonida bag‘riqora qush timsolida mahorat bilan kashf etilganligiga guvoh bo‘ladi.

“Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar. ... Bahori xo‘b bo‘lur, ekini va qovuni yaxshi bo‘lur. Samarqanddin janub soridur... Bag‘riqaro yo‘sunluq qushqina bo‘lurkim, qilquyruq ham derlar, Qarshi viloyatida behad va benihoyat bo‘lur uchun ul navohida murg‘aki qarshi derlar”.

(To‘qqiz yuz uchinchi (1497—1498) yil voqialari)

Sirojiddin Sayyid “Naxshab qushi ” she‘rida esa quyidagicha ta‘riflaydi:

Qarshining bag‘riqorasi,
Yantog‘i ham xoru xasi,
Bormi jahonda men kabi

Yoru diyor ovvorasi?

Qarshining bag‘riqorasi,

Bitmas dilimning yorasi.

Hijronimdan aytsam agar —

Besh yuz yillardir orasi.

Boburnoma” da 1525-yil voqealari bayonida Mirzo Bobur shunday yozadi:

“ Oxshom andin ko‘chub, Ali Masjidg‘a tushuldi. Bu yurtning torlig‘idin doyim men bir pushta ustiga tushar edim, cherik eli tamom bir qo‘lda tushar edikim, men tushgan pushta borig‘a mushrif edi. Kecha cherik elining o‘tidin ajab yaxshi chirog‘on bo‘lur edi...”

(To‘qqiz yuz o‘ttiz ikkinchi (1525) yil voqialari)

Bu parchada tepalikda turib, pastda navkarlari yoqqan gulxanning shu‘lasida charog‘on bo‘lib ketgan kechadan zavqlanayotgan Mirzo Boburning tinimsiz ruhiy evrilishlar girdobida birda cho‘kib, birda qalqib borayotgan mardona ko‘nglini ko‘ramiz. Sirojiddin Sayyid ham aynan shu bag‘ishlovini “Ko‘ngil” deb nomlagan va bu bilan matnning ma‘nodorligi, ta‘sirchanligini kuchaytirgan:

Desam yor-u diyorimdin —

xiromon bo‘lgan, ey ko‘nglim,

Sog‘inch-u dard-u yodlardin

farovon bo‘lgan, ey ko‘nglim.

Qorong‘u, so‘ngi yo‘q tunlar,

uzoq hijronli ellarda,

Cherigim yoqsa gulxanlar —

charog‘on bo‘lgan, ey ko‘nglim.

Yulduzsiz, oysiz qorong‘i kecha, yorsiz, diyorsiz hijronzada Mirzo Bobur ko‘ngli, yuqoridagi satrlarda mohiyatgaingan ta‘sirchan bir qiyos tasvirga muayyan yaxlitlik bag‘ishlagan. She‘rda nurga yo‘g‘rilgan iztirob va Boburga xos nekbinlik bor. Eng muhimi, shoir sinchi ijodkor sifatida real voqelikni badiiy voqelikka aylantirish jarayonida Mirzo Boburning mardona xarakterini ko‘rsata olgan. Har qanday jangu jadallar saltanat dag‘dag‘alari ortidagi qon to‘kishlar, muntazam ot ustida; qo‘lida qilich-qalqon-u, egnida temir sovut bilan ham o‘zining yoniq yuragini, shoir ko‘nglini saqlab qololgan nazokatli Mirzo Bobur qalbidagi favqulodda bir hayotsevarlik yorqin ifodalangan. Shoir qalbidagi tiriklik shukronasi shu qadar balandki, qayta-qayta taqdir zarbalaridan yerparchin bo‘lib ketgan Mirzo Bobur yana matonat bilan qad rostlashga o‘zida kuch-qudrat topadi.

“Bobur o‘z memuarida zohiriy safar, sarguzasht va kurashlarini bayon etgan. She‘rlarida esa u ko‘ngil va ruh sayohatiga daxldor ma‘no hamda tuyg‘ularni tasvirlab beradi” , - deydi taniqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul.

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida turgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlanganiga e‘tibor qaratilgan. Jumladan adabiy asarlarda she‘riy san‘atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san‘atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma‘rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsolar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she‘riy san‘atlarning rang-barangligi,

mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga alohida diqqat qilingan.

Ilmiy va badiiy ijod olamida shunday ijodkorlar bo‘ladiki, ular, eng avvalo, o‘z xalqining asl farzandi, millatning faxr va iftixori bo‘lish bilan birga, bir mamlakat, bir millat doirasidan chiqib, umumbashariy ahamiyat kasb etadilar. Bobur ham ana shunday siymolar sirasiga kiradi.

Adabiyotimizda xalqona falsafiy-ruh sodda ifodalarga singib ketgan donolik, hissiy kechinmalarga yo‘g‘rilgan hikmatli ma‘nodorlik tilning ifoda imkoniyatlari naqadar kengligini tasdiqlayapti. Bularning hammasi badiiy tafakkur madaniyati yangi bosqichga kirganidan dalolat beradi.

Adabiyot tarixi yana shundan dalolat beradiki, she‘riy san‘atlar shoir badiiy salohiyatini ko‘z-ko‘z etish, uning xilma-xil san‘atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosinig ko‘lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni jilolantirish san‘atkorligi vositasi bo‘lib kelgan.

Shoirning ayrim g‘azallari boshdan oxirigacha ma‘lum bir badiiy san‘at bilan muayyan bitilganini kuzatamiz. Jumladan, quyidagi g‘azal laff va nashr san‘ati bilan yaratilgan. Laff va Nashr (yig‘ish va yoyish ma‘nosini ifodalaydi) — ushbu san‘at she‘r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi.

Bu san‘at Bobur yuragidagi armonni aniqroq va ta‘sirliroq sharhlashga xizmat qilgan:

Ko‘ngilni zoru meni xoru tanni tor etgan,
Biri jafoi biri g‘urbatu biri hijron.
Tanu ko‘ngil bila ko‘z vaslu nozu husni uchun
Biri xarobu biri volaibiri hayron.
Tamomi umrida Boburg‘a uch so‘z aytibdur,
Biri so‘kunchu biri qattiqu biri yolg‘on.

Bobur she‘riyati ulug‘ daryo. Biz aytgan fikrlar undan bir tomchi. Uni o‘rgangan sari naqadar teran she‘riyat ekanligini anglab yetish mumkin. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nom qozondi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham Alisher Navoiy kabi o‘zbek mumtoz adabiyotida yozgan ruboiy va g‘azallari, asarlari bilan o‘z hissasini qo‘shdi, hamda tub burilish yasadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S. Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur... –T.: O‘zbekiston, 2011.
2. N. Jumaxo‘ja. Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: Innovasiya-Ziyo, 2020.
3. Vohidov E. Iztirob. Toshkent.: O‘zbekiston, 1992.
4. Boboyev T. She‘r ilmi ta‘limi. T.: O‘qituvchi, 1996.
5. Bobur. Boburnoma. –T.: Yulduzcha, 1990. –B. 239.
6. S. Sayyid. So‘z yo‘li. I-kitob. –T.: 2008.